2-SHO‘BA SHO‘RLANISH MONITORINGI

Nukus · 16.10.2026 • UDK 631/635

Qoraqalpog‘iston shimolida kuzgi bug‘doy agrotsenozlaridagi begona o‘tlar populyatsiyasining tur tarkibi hamda tarqalish dinamikasi

Ajiniyazova Mexriban Koyli’baevna q.x.f.f.d. (PhD), dotsent v.v.b. · **Saymbetov Alisher XXX** q.x.f.f.d. (PhD), professor · **Bakirova Miyirgul Bekmurza qizi** talaba

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

mexkkuzb@mail.ru

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610046

Iqtibos uchun: Ajiniyazova Mexriban Koyli’baevna, Saymbetov Alisher XXX, Bakirova Miyirgul Bekmurza qizi. Qoraqalpog‘iston shimolida kuzgi bug‘doy agrotsenozlaridagi begona o‘tlar populyatsiyasining tur tarkibi hamda tarqalish dinamikasi // Orolbo‘yi hududida suvdan foydalanish samaradorligi va sho‘rlanishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda aholi hayot faoliyatiga ta’sirini monitoring va nazorat qilish uchun iqlimga chidamli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2026. – B. 191–194. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610046

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining shimoliy mintaqasida joylashgan Chimboy tumanidagi kuzgi bug‘doy ekinzorlarining fitosanitar holati hamda begona o‘tlarning floristik tarkibi tahlil qilingan. Chimboy tumani «Kegayli» kanalining shimoliy o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lib, o‘ziga xos tuproq-iqlim sharoiti, sho‘rlanish darajasi, vegetatsiya davridagi samarali harorat yig‘indisi, yog‘in-sochin miqdori hamda nisbiy namlik ko‘rsatkichlari bilan mintaqaning boshqa hududlaridan ajralib turadi. Bu mikroklimat va edafik omillar ekin maydonlaridagi begona o‘tlar populyatsiyasining shakllanishi, turlar xilma-xilligi va tarqalish zichligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘tkazilgan fitosotsiologik va agrobotanik tadqiqotlar natijasida tuman kuzgi bug‘doy maydonlarida 15 ta oila va 47 ta turkumga mansub 52 turdagi begona o‘tlar tarqalganligi aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichlar markaziy va janubiy mintaqalardagi kuzgi bug‘doy agrotsenozlari (16–17 ta oila, 46–55 ta turkum, 53–63 ta tur) bilan qiyoslanganda, shimoliy hududda begona o‘t turlarining soni 1 tadan 11 tagacha kamroq ekanligi kuzatildi. Biomorfologik va hayotiy shakllari bo‘yicha tahlil qilinganda, shimoliy hududda ifloslanganlik darajasining asosiy ulushini bir yillik begona o‘tlar — 59,6% (31 tur) va ko‘p yilliklar — 34,6% (18 tur) tashkil etgani, ikki yillik turlar esa 5,8% ni (3 tur) tashkil etgani belgilandi. Olingan ma’lumotlar Qoraqalpog‘istonning shimoliy hududlarida kuzgi bug‘doy hosildorligini oshirish va fitosanitar xavfsizlikni ta’minlashda integratsiyalashgan kurash choralarini (IPM) to‘g‘ri rejalashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Shimoliy hudud, kuzgi bug‘doy, ikki yillik, bir yillik, bir va ikki pallali, ko‘p yillik.

Kirish

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududi sug‘oriladigan yerlarining meliorativ holatining noqulayligi, sho‘rlanish darajalarining oshib borishi, ob-havo iqlim sharoitining keskin kontinentalligi, yozi issiq va quruq, qishi sovuq bo‘lishi bevosita dehqonchilik yuritishda bir qator qiyinchiliklarni tug‘dirishi bilan birga, qishloq xo‘jaligi ekinlari kasallik, zararkunanda va begona o‘tlar hisobiga ham ekinlar hosildorligining pasayishiga katta ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Bu borada, Qoraqalpog‘istonning shimoliy hududida ham keyingi yillarda ekinlar hosili, ayniqsa, bug‘doy don hosilining begona o‘tlar ta’sirida kamayib borishi, kuzgi g‘alla maydonlarida tarqalgan begona o‘tlar turlari va ularning biologik xususiyatlarini o‘rganishni talab etadi. Albatta, ekin maydonlarida tarqalgan begona o‘tlarning miqdor jihatdan ko‘p yoki kam bo‘lishi, tuproqlarning strukturasi, mexanik tarkibi, suv xossalari, oziq moddalar bilan ta’minlanganligi hamda tashqi

muhit omillariga: har bir hududda yerdan foydalanish tartibi va dehqonchilik madaniyati, tuproqlarning begona o‘tlar urug‘lari bilan qay darajada ifloslanganligi, suv manbalari va suv bilan ta’minlanganligiga, mavsumda o‘simliklarning rivojlanish sharoitlariga ham bog‘liqdir. Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda, har bir ekin maydonida tarqalgan begona o‘tlarning oilasi va turini, biologik xususiyatlarini bilgan holda, ularga qarshi samarali kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ilmiy tadqiqotlar olib borilgan Respublikaning shimoliy hududida joylashgan Chimboy tumani g‘arbdan Bo‘zatov tumani, janubdan Kegayli tumani, shimoldan Mo‘ynoq tumani, sharqdan Qorao‘zak tumani bilan chegaradosh. Chimboy tumani «Kegayli» kanali qirg‘og‘i bo‘ylab, Qoraqalpog‘iston Respublikasining shimoliy o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan. Tuman iqlimi keskin o‘zgaruvchan, yer osti suvlari yaqin, cho‘l hududiga yotadi, yozi issiq, qishi qisqa, sovuq keladi.

Iqlim sharoiti jihatidan Qoraqalpog‘iston Respublikasining shimoliy va janubiy mintaqalari bir-biridan ajralib turadi. Shimoliy hududda janubiy hududga nisbatan vegetatsiya davri 15-18 kunga qisqaligi, tuproq sho‘rlanish darajasining yuqoriligi, havoning nisbiy namligi va vegetatsiya davrida foydali haroratning pastligi, yog‘in-sochinning kam bo‘lishi, qurg‘oqchilik ko‘p bo‘lishi, shamolning kuchli esishi, yoz oylarida tuproq yuzidagi namlikning tez bug‘lanib turishi shimoliy hududda nafaqat qishloq xo‘jaligi ekinlari, balki ekin maydonlarida tarqalgan begona o‘tlar miqdori va turlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Chimboy tumani sug‘oriladigan yerlarining umumiy maydoni 46,9 ming gektar bo‘lib, shundan 41,5 ming gektari, ya’ni 86,6 %, turli darajada sho‘rlangan bo‘lib, kuzgi g‘alla ekinlari 4-5 ming gektar maydonda yetishtirilib kelinadi.

Materiallar va metodlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasining turli darajada sho‘rlangan shimoliy, markaziy va janubiy hududlari kuzgi bug‘doy maydonlarida tarqalgan begona o‘tlarning tur tarkibi, ularning hududlar bo‘yicha tarqalishi aniqlanadi.

Tadqiqotlarda fenologik kuzatuv, biometrik o‘lchashlar «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari» bo‘yicha, tuproqning agrofizikaviy va agrokimyoviy tahlillari «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах» bo‘yicha, begona o‘tlar miqdori A.M.Tulikov uslubiy qo‘llanmalari bo‘yicha, tadqiqot natijalarining statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» manbasidagi dispersion tahlil uslubi bo‘yicha amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari


Dala ekspeditsiyalarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining kuzgi bug‘doyzorlarida 21 ta oila, 65 ta turkumga kiruvchi 78 turdagi begona o‘tlar tarqalgan bo‘lib, shundan: bir yilliklar–48 ta, ikki yilliklar–4 ta, ko‘p yilliklar–26 ta turni tashkil etadi. Jumladan, boshoqdoshlar (*Poaceae*) oilasiga mansub–15 ta, sho‘radoshlar (Chenopodiaceae)–14 ta, karamdoshlar (Brassicaceae)–9 ta, qoqio‘tdoshlar (*Asteraceae*)–9 ta, dukkakdoshlar (*Fabaceae*) oilasiga mansub–5 ta turni, qolgan oilaga mansub begona o‘tlar 1-3 ta turni tashkil etganligi aniqlangan.

Mintaqaning o‘rganilgan hududlarida, kuzgi bug‘doy maydonlarida ifloslantirish ko‘rsatkichi bo‘yicha bir yillik begona o‘tlar eng yuqori bo‘lib–61,5%, ikki yilliklar–5,1 va ko‘p yilliklar 33,3% ni tashkil etganligi qayd etilgan.

Tuman kuzgi bug‘doy maydonlarida tarqalgan begona o‘tlar oilasi va turlarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki (1-rasm), tuman g‘allazorlarida 15 ta oila, 47 ta turkumga mansub, 52 ta turdagi begona o‘tlar tarqalgan bo‘lib, markaziy va janubiy mintaqalaridagi kuzgi bug‘doy maydonlarida esa bu ko‘rsatkichlar 16-17 ta oila, 46-55 ta turkum, 53-63 ta turni tashkil etib, shimoliy mintaqada 1-11 donaga kam miqdorda ekanligi hisobga olindi. Shuningdek, shimoliy hududda ham ifloslanganlik darajalari bo‘yicha bir yilliklar eng yuqori ko‘rsatkichni 59,6 % (31 ta), ikki yilliklar 5,8 % (3 ta) va ko‘p yilliklar esa –34,6 % (18 ta) ni tashkil etganligi kuzatildi va ushbu ma’lumotlarni 1-rasmda ko‘rish mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, shimoliy hududda ham mintaqaning janubiy va markaziy hududi kuzgi bug‘doy maydonlarida mavjud bo‘lgan ayrim begona o‘tlar turlari, masalan, bir yilliklardan qizg‘aldoq (*R. refracta*), ko‘knor qizg‘aldoq (*P. pavoninum Schrenk*), olabuta, yovvoyi gultojixo‘roz (*A. blitum*), oq sho‘ra (*Ch. album*), novcha bargo‘t (*S. altissima*), qurtana (*S. loeselii*), oddiy bangidevona (*Datura stramonium*), g‘o‘za qo‘ytikan (oshaǵan) (*X. strumarium*), yapon yaltirboshi (B. japonicus), ko‘p yilliklardan zaharli ayiqtovon (*R. sceleratus*), Drobov otqulog‘i (*R. drobovii*), qo‘ypechak (*C. arvensis*), tiniq qorabosh (*S. diluta Bieb*.) tarqalmaganligi kuzatildi.

Tajribalarda kuzgi bug‘doy maydonlarining begona o‘tlar bilan ifloslanganlik darajalari o‘rganilganda, begona o‘tlar bilan zararlanish darajasi kuzgi bug‘doyning tuplanish fazasida bahorda yuqori ekanligi qayd etilgan. Ushbu keng tarqalgan begona o‘tlar kuzgi bug‘doy unib chiqishidan amal davri oxirigacha uning o‘sishi, rivojlanishiga to‘sqinlik qilib, don hosildorligining pasayishiga sabab bo‘lmoqda.



1-rasm. Qoraqalpog‘iston shimoliy hududi (Chimboy tumani) kuzgi bug‘doy maydonlarida tarqalgan begona o‘tlarning tarqalish turlari, dona hisobida

Shimoliy hudud kuzgi bug‘doy maydonlarida bir yilliklardan ko‘k sho‘ra (*Ch. glaucum*), tatar olabutasi (*A.tatarica*), maydagul olabuta (A.micrantha), xaltali ebalak (C.utriculosus Bluk.), hissopbarg bassiya (B.hyssopifolia), yoybargli qorabargo‘t (*S.arcuata*), sho‘rbuta (*S.dendroides*), Iberiya sho‘ragi, tuyaqorin (*S.iberica Sennenet*), Suvorov psilliostaxisi (*P.suvorovii*), qamishsimon g‘ozo‘t, g‘ozo‘t (*S.schoenoides*), ikki yilliklardan qora mingdevona (mıńduana) (*H.niger*), ko‘p yilliklardan kengbarg torol (mıńbas) (L.latifolium), sharq takasoqoli (tekesaqal) (*D.orientalis*), ochtangachali paxtatikan (kalwen) (*S. ochrolepideum*), o‘rmalovchi kakra (kekre) (*A.repens*), o‘rmalovchi sho‘rajriq (ajırıq) (*Ae.repens*), tukli bug‘doyiq, oqcho‘pon (*A.trichophorum*) keng tarqalib, kuzgi bug‘doy unib chiqishidan amal davri oxirigacha uning o‘sishi, rivojlanishiga to‘sqinlik qilib, don hosildorligining pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining turli darajada sho‘rlangan kuzgi bug‘doy yetishtiriladigan maydonlarida o‘tkazilgan dala ekspeditsiya tadqiqotlarimiz asosida quyidagi xulosalarni keltirib o‘tamiz:

Xulosa va tavsiyalar

Qoraqalpog‘iston Respublikasining kuzgi bug‘doy yetishtiriladigan maydonlarida 21 ta oila, 65 ta turkumga kiruvchi 78 turdan ortiq begona o‘tlar tarqalgan bo‘lib, shundan: bir yilliklar – 48 (61,5%) ta, ikki yilliklar – 4 (5,1 %) ta, ko‘p yilliklar – 26 (33,3 %) ta turni tashkil etadi. Jumladan, keng tarqalishi bo‘yicha boshoqdoshlar (*Poaceae*) oilasiga mansub – 15 ta, sho‘radoshlar

(*Chenopodiaceae*) – 14 ta, karamdoshlar (Brassicaceae) – 9 ta, qoqio‘tdoshlar (*Asteraceae*) – 9 ta, dukkakdoshlar (*Fabaceae*) oilasiga mansub begona o‘tlar 5 ta turni, qolgan oilaga mansub begona o‘tlar 1-3 ta turni tashkil etganligi aniqlandi.

Mintaqaning janubiy, markaziy va shimoliy hududlari bo‘yicha tuproq – iqlim sharoiti, tuproqlarning sho‘rlanganlik darajasi, yerdan foydalanish tartibi va begona o‘tlarga qarshi kurashishda o‘tkaziladigan agrotexnik va kimyoviy tadbirlarga ko‘ra, begona o‘tlar turlari bo‘yicha tarqalishi ham bir-biridan farqlanib, mintaqaning janubiy hududi Amudaryo, markazda Xo‘jayli va shimolda Chimboy tumanlarida mos ravishda 16, 17, 15 ta oila, 55, 46, 47 ta turkumga mansub, 63, 53, 52 turdagi begona o‘tlar aniqlanib, jumladan, bir yilliklar – 39, 32, 31 ta, ikki yilliklar – 4, 2, 3 ta, ko‘p yilliklar – 20, 19, 18 ta turni tashkil etadi. Kuzgi bug‘doy maydonlarida zarar keltirishi bo‘yicha bir yillik begona o‘tlar ustunlik qilib, hududlar kesimida (mos ravishda – 61,9; 60,4 va 59,6 %) eng yuqori ko‘rsatkichni egallashi dala tadqiqotlarimizda aniqlanganligi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ajiniyazova M.K., Saymbetov A.XXX. (2023), Types and spreading areas of weeds spread in winter wheat fields in Karakalpakstan, EPRA International Journal of Multidisciplinary Research, 9(5). https://doi.org/10.36713/epra13423
2. Ajiniyazova M.K. (2023), Kuzgi bug‘doy maydonlaridagi begona o‘tlarga qarshi kurashish, Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi, 8(1), ISSN 2091-573X. http://mamun.uz/uz/page/56, pp 153-157
3. Koyli’baevna, A. M. (2025, November). QORAQALPOG‘ISTONNING TUPROQ VA IQLIM SHAROITLARINING O‘SIMLIKLARNING KO‘PAYISHIGA TA’SIRI. In Conferences (Vol. 1, No. 4, pp. 243-245).
4. Qoyli’baevna, A. M. (2025, November). QORAQALPOG‘ISTONNING SHO‘RLANGAN TUPROQLARI SHAROITIDA O‘SIMLIKLARNI KO‘PAYTIRISHDA ZAMONAVIY AGROTEXNOLOGIYALAR. In *Conferences* (Vol. 1, No. 4, pp. 240-242).
5. Мехрибан Койлыбаевна А. и др. РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ВИДОВОЙ СОСТАВ ОДНОЛЕТНИХ СОРНЫХ РАСТЕНИЙ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ //Conferences. – 2026. – Т. 2. – №. 3. – С. 1108-1114.
6. Koylibaevna A. M. et al. ORGANIKALÍQ HÁM MINERAL TÓGINLERDIŃ ǴAWASHANÍŃ ÓSIWI HÁM RAWAJLANÍWÍNA TÁSIRI //Conferences. – 2025. – Т. 1. – №. 4. – С. 356-359.
7. Узақбай, А. Е. «ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ШАРОИТИДА ЎРГАНИЛГАН ҒЎЗАНИНГ Ғ3 ДУРАГАЙ ОИЛАЛАРИДА ТОЛА ЧИҚИМИ ВА ТОЛА ИНДЕКСИ БЕЛГИЛАРИНИ ВАРИАЦИОН ТАҲЛИЛ НАТИЖАЛАРИ.» INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS 3.36 (2025): 98-103.